



## AYOLLARNING HADIS ILMI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

**Maksumova Inoyatxon Vahidulla qizi**

Alfraganus universiteti, "Filologiya fakulteti",  
Arab tili yo'nalishi, 3-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15790673>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil  
Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil  
Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*hadis, fiqh ilmi, sanad, roviylarini bilish ilmi, tahammul ilm, ijodat, samo', vijo'da.*

### ABSTRACT

*Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan ayollarning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi tarixan juda katta bo'lib, islom dinining ilk davrlarida ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki ilmiy faoliyatda ham muhim rol o'ynagan. O'rganishlar natijasida ayollar ishonchli ulamolar va asarlarning asosiy manbalari sifatida harakat qilgan. Islom ta'limotlarini o'rganish va tarqatishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ayollarning hadis ilmida xos ma'ruzalari va fatvolari bo'lgan. Ularning noyob bilimlari va tajribalari kelajak avlodlarga o'rgatishda ko'maklashgan. Ayollar haqida ko'plab hadislar yaratilgan. Ularning hayot va narsalarga bo'lgan qarashlari hadislarda aks etgan bo'lib, bu esa ayollarning hayot tizimini yaxshilashga doir ko'rsatmalar katta ahamiyat kasb etadi.*

III/IX asr hadis ilmi tarixida oltin davr hisoblanadi. Chunonchi, VIII asrning o'rtalaridan boshlab tobora rivojlangan hadis ilmi bilan keyingi ikki-uch asr davomida to'rt yuzdan ziyod mualliflar shug'ullanadilar<sup>1</sup>. Hattoki bu davrda hadislarni ishonchli manbalarga asoslanib, maromiga yetkazib ilmiy ravishda tartibga solish olimlar orasida eng sevimli va zaruriy mashg'ulot darajasiga yetdi. Shuningdek, bu asrda to'plangan hadislar ilmiy nuqtai nazardan muayyan qonun-qoidalarga tayanib tartibga tushirildi. Hijriy ikkinchi asrda hadis fiqh ilmining bir bo'lagi sifatida o'rganilgan bo'lsa, uchinchi asrga kelib, alohida soha bo'lib ajralib chiqdi va mustahkam asosga ega bo'lgan mustaqil ilm sifatida qaror topdi. Hadis ilmining fiqh ilmidan alohida fan sifatidagi farqini birinchi bo'lib Imom Shofe'iy ko'rsatib berdi.

Vaqt o'tishi bilan hadis rivoyat qiluvchi kishilarning ko'pligidan ularni aniq bilish, sanadini tekshirish, ular o'rtasidagi tafovutlarni aniqlab, to'g'riligiga ishonch hosil qilish kabi qator masalalarni o'rganuvchi maxsus ilm — "ulūm al-hadis" ya'ni "hadis ilmlari" paydo bo'ldi. Hadis ilmining shakllanish va rivojlanish tarixining asosiy davri namoyandalari — tabi'a tobi'inlar tabaqasiga mansub muhaddislar hadislarni to'plab, kitoblar holiga keltirdilar. Chunki islom davlatining chegarasi kengayib borishi bilan turli xalqlar, dinlar, mazhablar, millat va elatlar vakillari islomni qabul qildilar. Albatta, ularning yodlash qobiliyati, arab tilini bilish darajasi, e'tiqodi va boshqa omillar dinni tushinishda qiyinchilik tug'dirar edi. Bundan tashqari siyosiy fitnalar chiqib, turli janjallar boshlandi, xilma-xil firqalar yuzaga keldi. Orada

<sup>1</sup> Uvatov U. Ikki buyuk donishmand - T.: Sharq, 2005.- B.6.

ham qurolli, ham fikriy, ham g'oyaviy kurashlar avj oldi. Har taraf o'zining haq ekanligini isbotlashda turli vositalardan foydalanib, Qur'on va Sunatdan dalil keltirishga urinardi. Bunday hollarda nohaq tomon Qur'onni botil ta'vil qilishga va ichidan to'qib chiqargan gapni hadis deb yolg'on da'vo qilishga o'ta boshladi. Ulamolar bunday soxta hadislarni "mavzu" (soxta, to'qilgan) hadis deb atadilar.

Muhaddislar Payg'ambar (s.a.v.)ning sunnatlarini asl holda kelajak avlodga yetkazish uchun ishonchli, adolatli rivoyatlarni olib, uni sof holda, har qanday soxtaliklardan xoli bo'lgan holatda to'pladilar. Ular hadislarni "sanad" (isnod) va "matn" qismlariga bo'lib o'rgandilar. "Sanad" so'zi arab tilida "suyanchiq", istilohda esa "hadis matniga olib boruvchi yo'l", "roviylar zanjiri" degan ma'noni anglatadi. snodda rivoyat qiluvchi (roviy)larning ismlari (ba'zida kunyasi, laqablari) ketma-ket kelib, oxiri shu hadisni rivoyat qilgan shaxs bilan yakun topadi<sup>2</sup>.

Shuningdek, hadisning matni o'rganilgan. Bunda uning lafzi va ma'nosi, Qur'onga zid kelmasligi, shunga o'xshash boshqa rivoyatlar bilan solishtirilganda mos tushishi (mos tushmasa boshqa kuchli roviyning hadisi olingan), matnning to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan keyin muhaddis uni qabul qilgan.

Hadis ilmlari asosan 7 yo'nalishda rivojlandi:

1. Hadislarni, roviylarini adolat va zabt jihatidan saralash ilmi (ilm al-jarh va-t-ta'dil);
2. Hadis roviylarini bilish ilmi (ilm rijo'l al-hadis);
3. Hadislarning ixtilofli jihatlarini o'rganuvchi ilmi (ilm mukhtalif al-hadis);
4. Illatli hadislarni bilish ilmi (ilm ilal al-hadis);
5. Rivoyati bitta roviy bilan yolg'izlanib qolgan hadislarni bilish ilmi (ilm g'arib al-hadis);
6. Bir shar'iy hukm kelgan hadisini boshqasi bilan amali to'xtatilishini o'rganuvchi ilmi (ilm naskh al-hadis va mansuxuhu);
7. Hadislarning vorid bo'lish sabablari ilmi (ilm asbab vurud al-hadis)<sup>3</sup>.

Quyida hadis ilmida ayollarning o'rni uch jihat doirasida o'rganiladi:

1. Tahammul (hadislarni shayxdan eshitib, xotirasida saqlab, boshqalarga yetkazish) ilmida ayollarning o'rni;
2. Ayol roviylarning hadis talabidagi safarlari;
3. Jarh va ta'dil ilmida ayollarning o'rni.

1. Tahammul ilmida ayollarning o'rni

Tahammul ilmida ayollarning o'rni borasida quyidagilarni keltirish mumkin: Payg'ambar (s.a.v.) davrlarida tahammul og'zaki tarzda eshitish va rivoyatga asoslangan bo'lgan. Hijriy III asrdan, ya'ni tadvin davridan so'ng turli kitoblarga va sahih turdagi hadislarga qarab yetkazila boshladi.

Tahammulning yo'llari sakkizta bo'lib, ular: samo, qiroat<sup>4</sup>, ijozat, munavala<sup>5</sup>, kitobat, i'lom<sup>6</sup>, vasiyat<sup>7</sup> va vijdodadir. Ayol roviylarga nisbatan tahammul Payg'ambar (s.a.v.) davrlarida turli yo'llar bilan bo'lgan:

<sup>2</sup> Muratov D. Hadisshunoslik atama va iboralari (qisqacha izohli lug'at). – T.: Fan, 2009. – B. 21.

<sup>3</sup> Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., Alimova M. Hadisshunoslik. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 78–81.

<sup>4</sup> Qiroat – talib (shogird) hadislarni yoddan yoki kitobdan o'qib, shayxga eshittirishi.

<sup>5</sup> Munavala – shayxning o'z shogirdiga eshitganini yoki yozganini: "Bu falonchidan rivoyat, uni mendan rivoyat qilgin", deb taqdim qilishi.

1. Xos majlislar va umumiy majlislar. Bu narsa Payg‘ambar (s.a.v.)ning ayollarga alohida kun ajratganlarida ko‘rinadi. Ular masjidlarga borishgan va hadislarni og‘zaki tarzda eshitishgan. Hayit kunlari va haj mavsumida ham shunday hol yuz bergan..

2. Ayollarning Rasululloh (s.a.v.) oldilariga kelishlari va savol so‘rashlari. Bu holat asosan ayollarga xos masalalarda yuz bergan. Masalan, Imom Ahmad ibn Hanbal Rasululloh (s.a.v.)ning rafiqasi Oisha (r.a.)dan quyidagi rivoyatni keltiradi:

«Hamma ovozlarni eshitib turuvchi Allohga maqtovlar bo‘lsin! Tortishuvi bo‘lgan ayol Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga kelib so‘zlashganda, men uyning bir burchagida edim. Nima deganini eshitmaganman. Alloh taolo ‘Qod sami‘allohu...’ oyatini nozil qildi.»

Oisha (r.a.) bu rivoyatda Allohning hamma narsalarni behato eshitib turishiga o‘zi guvoh bo‘lganini aytgan. Chunki bu tarixiy hodisa Oisha (r.a.)ning uyida sodir bo‘lgan. Xavla binti Sa‘laba Payg‘ambar (s.a.v.)ga o‘z shikoyatlarini ayta boshlagan. Oisha (r.a.) esa, uyning bir burchagiga borib, ularning ovozlari bir past, bir baland bo‘lib turganini eshitgan bo‘lsalarda, tortishuvning mohiyatini tushunmaganlar. Alloh taolo “Qod sami‘aAllohu...” – “Albatta Alloh eshitdi...” oyatlarini nozil qilgan<sup>8</sup>.

3. Payg‘ambar (s.a.v.)dan fursat bo‘lganda, ular safar qilayotgan paytlarida ham savol bilan murojaat qilganlar.

4. Sahobiyalarning biror hodisaga guvoh bo‘lishlari yoki Payg‘ambar (s.a.v.)ning biror holatga nisbatan yangi hukmni joriy qilishlari.

Rasululloh (s.a.v.)ning vafotlaridan so‘ng erkak va ayol sahobalar ilm talab qilinuvchilarga aylanishdi. Tobiylar uchun tahammul ko‘p yoki kamligi jihatdan turli ko‘rinishlarni oldi:

Samo‘ (eshitish) – hadisni eshitish orqali o‘rganish yo‘llaridan biri. Aksariyat roviy ayollar shu yo‘l orqali hadislarni o‘rganishgan. Xususan Rasululloh (s.a.v.)ning ayollarining shogirdlari, Madinada istiqomat qiluvchilar, haj ibodatini ado etish uchun kelganlar shular jumlasidandir.

Kitobat (yozib olish yoki berish) – shayx shogirdiga eshitgan hadisini yozib berishi yoki roviy o‘z huzuridagi kishidan yoki qachondir eshitgan kishisidan xotirasida qolgan narsani yozishi yoki yozdirishi. Bu holat islom fathlari kengayganidan so‘ng vujudga kelgan. Xatlar Rasululloh (s.a.v.)ning so‘zlarini o‘z ichiga olgan. Bu xatlar ba‘zida fatvo yoki hadis o‘rganish maqsadida bo‘lmasligi ham mumkin edi. Tahammulning bu turiga Oisha binti Talhadan rivoyat qilingan hadisni misol tariqasida keltirish mumkin: Oisha binti Talha (r.a.) aytdilar: “Oisha (r.a.)ning oldilariga turli shaharlar ayollari kelib, ulardan dars olishar, keksalar esa vaqti-vaqti bilan kelib ziyorat qilib ketishar edi. Yoshlari menga do‘stona munosabatda bo‘lishar, men bilan muloqotda bo‘lishar edi va menga turli joylardan maktublar yozishar edi. Men Oisha (r.a.)ga: ‘Ey xola, bu falonchining maktubi va hadyasi’, der edim. Oisha (r.a.) esa: ‘Qizim, unga javob yoz va hadya yubor. Agar sening hadyang bo‘lmasa, men beraman’, der edilar va hadya berardilar<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> I‘lom – shayxning o‘z talabiga rivoyat qilishga izn bermasdan, hadis yoki kitobni falonchidan eshitganligini xabar berib aytishi.

<sup>7</sup> Vasiyat – shayx o‘zi rivoyat qilgan hadislar yozilgan kitob(lar)ni o‘limi arafasida yoki safarga ketayotganda shogirdiga yoki biror kishiga vasiyat qilib qoldirishi

<sup>8</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – T.: Hilol-nashr, 2016. – J. 6. – B. 72.

<sup>9</sup> Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. O‘zbekcha tarjima va izohlar bilan. 1151-raqamli hadis.

Vijoda (topish) – roviy shayxdan eshitmagan yoki rivoyat qilishga ijozat olmagan holda shayxning yozgan kitoblaridan hadislarini topib, rivoyat qilishi. Ba’zi sahobiy va tobiyular hayotida bu “Otamning kitobidan topdim” kabi ifodalar bilan uchraydi. Misol tariqasida, Samona binti Hamadonni keltirish mumkin. U Vaddoh ibn Hisonning qizi bo’lib, «Buvam Vaddoh ibn Hisonning yozganlaridan topdim» gapiga binoan bobosidan keltirgan<sup>10</sup>.

Ijozat (ruxsat) – shayx (ustoz) tomonidan roviy (shogird)ga boshqalarga hadis rivoyat qilishi uchun og’zaki yoki yozma ruxsat berilishi tushuniladi. Hadislar yozma shaklda qayd etila boshlagach, hadislarining isnod jihatiga e’tibor qaratila boshlandi. Bunda ustoz-shogird munosabatlari muhim jihat bo’lgan. Ma’lumki, kitobni birdaniga bir nechta talabaga yetkazib berish mushkul ish. Shu sababli olimlar ijozat olishga loyiq kishining ilm ahlidan biri bo’lishiga e’tibor berganlar. Ijozat yo’li bilan hadisni yetkazganlardan Fotima binti Muhammad ibn Ali ibn Shari’a Laxmiyni misol keltirish mumkin. U akasi Muhammad bilan ba’zi ustozlarining majlislarida qatnashgan va birgalikda ijozat olgan<sup>11</sup>.

Ayol roviylarning hadis talabidagi safarlari borasida esa quyidagilarni aytish mumkin: bu jihatdan ayollarning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi — ularning uy bekasi ekanligi, safarning mashaqqati va yolg’iz safar qilishga qodir emasligi nuqtai nazaridan kuchsiz bo’lishi tabiiy. Shunga qaramay, yetib kelgan ma’lumotlar, tarixiy manbalar va tarojim (biografik) kitoblarida bu yo’nalishda ham ayollarning o’rni mavjudligi qayd etiladi. Qur’oni karimda aytilgan: “(Ey Payg’ambar ayollari!) O’z uyingizda qaror topinglar...” (Ahzob surasi, 33-oyat)<sup>12</sup> jumlasida ayollarning uydan chiqishlari mumkin emas degan tushunchani ilgari surmaydi. Bu ma’nodagi oyat nozil bo’lganidan keyin ham Payg’ambar (s.a.v.)ning ayollari uylardan chiqqanlar. Hatto uzoq safarlarga ham borganliklari manbalarda ko’rsatiladi. Misol uchun, Ummu Salama (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) bilan birga Hudaybiyada bo’lganlar. Oisha onamiz esa ular bilan birga haj amallarini bajarganlar.<sup>13</sup>

Rasululloh (s.a.v.) zamonlarida safar qilish mavjud bo’lgan. Ayollar Rasululloh (s.a.v.)ning huzurlariga turli qabilalardan kelgan vakillar yig’ilishida ishtirok etganlar. Ular eshitganlarini boshqalarga yetkazishga harakat qilganlar. Hadislarini o’rgatish asosan Habashiston va Madinaga qilingan hijratlar davomida bo’lgan. Ayollar bu safarlarda o’zlarining turmush o’rtoqlariga hamrohlik qilganlar.

Rasululloh (s.a.v.) vafotlaridan so’ng sahobiy va sahobiyalar turli o’lkalarga hadis o’rgatish uchun tarqalganlar. Sunnatning yoyilishida bunday safarlarning o’rni muhim. Sahobiyalarning bu tomondan o’rnini alohida ta’kidlanish joiz.:

Ummu Atiyya Ansoriyya. Ibn Abdul Barr uni hadis rivoyat qilgan ayol sifatida alohida eslab o’tgan va uni Basra aholisi orasidan deb qayd etgan. Tobiiy ayol Hafsa binti Sirinning aytishicha, Ummu Atiyya Basraga kelib, Bani Xalaf hududida yashagan. U yerda fiqh ilmi, hadislarini rivoyat qilish va hukm hadislarini o’rgatish bilan mashhur bo’lgan.

Asmo binti Yazid ibn Sakan. Ayollar orasida hadis rivoyat qilish borasida Oisha va Ummu Salama (r.a.)dan keyin uchinchi o’rinda turadi. Shom diyorida hadis aytganlikda mashhur bo’lgan. Shuningdek, “Mo’minlarning onasi” martabasiga erishgan Ummu Habiba aka-ukasi

<sup>10</sup> Xatib Bag’dodiy. Tarixi Bag’dod. – Qohira: Maktaba al-Xonijiy, 1931. – J. 14. – B. 440.

<sup>11</sup> Ifaf Abdulg’afur Hamid. Juhud al-marro fi nashr al-hadis va ulumih // Majalla jomea Ummul-Quro li ulum ash-shari’a va-l-lug’at al-arabiyya va adabiha, 2007. – J. 19. – B. 254.

<sup>12</sup> Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri // Tarjima va tafsir muallifi: shayx Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti, 2012. – B. 422.

<sup>13</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol-nashr, 2014. – J. 25. – B. 8.

Xalifa Muoviyaning huzuriga borganda hadis rivoyat qilgani aytiladi. Ahmad ibn Hanbal o'zining "Ilal" nomli kitobida Shom, Basra, Kufa shaharlarida Rasululloh (s.a.v.)dan hadis rivoyat qilgan ayollar ismlarini keltirib o'tgan<sup>14</sup>.

Haj ibodatini amalga oshirish uchun qilingan safar: Haj mavsumi, hadis talabidagi kishi uchun oliy isnodga erishishdagi sa'y-harakatda muhim hisoblangan. Hajjat al-Vado'da ayollar ham ishtirok etgani ma'lum. Rasululloh (s.a.v.) vafotlaridan so'ng haj niyatida kelgan kishilar sahobalar bilan ko'rishish uchun Madinada to'planganlar. Ayollar esa, avvalgi bobda qayd etilganidek, Rasululloh (s.a.v.)ning ayollari huzurlariga borib, ulardan hadis o'rganganlar. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Ummu Solim binti Molik Rosibiyya — Oisha (r.a.)dan rivoyat keltirgan tabiiy ayollardan biri. "Tahzib at-Tahzib" kitobida uning 17 marta haj niyatida Basradan kelganligi, ishonchli (siqa) tabiiy ayol Jasra binti Dajjaja esa 40 marotaba umrani ado etgani aytiladi<sup>15</sup>. Bu holat, tabiiyki, hadis talabidagi ilmiy safar bo'lganligi tabiiy xolatdir.

Xulosa qilish mumkinki, ayollarning safarlari ko'pincha otalari, turmush o'rtoqlari yoki o'zlariga mahram bo'lgan kishilar bilan birga bo'lgan. Ayollarda mavjud sharoitlar ularning hadis talab qilishdagi safarlariga to'sqinlik qilmagan..

Jarh va ta'dil ilmida ham ayollar alohida mavqega ega. "Jarh" so'zining lug'aviy ma'nosi – "jarohat yetkazmoq" yoki "ayblamoq" hisoblanadi. Istimlohiy ma'nosi esa — roviyning muayyan kamchiligi tufayli u rivoyat qilgan hadisning rad etilishi. "Ta'dil" so'zining lug'aviy ma'nosi – "adolatli deb bilmoq" bo'lib, istimohiy ma'nosi — roviy rivoyatining qabul qilinishidir<sup>16</sup>.

Sahobalar hadis rivoyat qilishda Sunnatga xatoliklar yoki o'zgartirishlar kirib qolmasligi uchun o'ta ehtiyotkor bo'lgan edilar. Aks holda, din ichida turli fitnalar yuzaga kelishi muqarrar edi. Shu sababli ular hadislarni yodlab olishga katta e'tibor berar edilar.

Islom ta'limotiga ko'ra, odob nuqtai nazaridan kishining aybini ochish gunoh hisoblanadi. Ammo hadislarni soxtalashtirishdan himoya qilish, Sunnatni kelgusi avlodga sof holatda yetkazish zarurati sababli, yolg'onchiligi bilan mashhur bo'lgan kishilar haqidagi ma'lumotlar jarh va ta'dil ilmiga oid asarlarda muayyan odob-axloq qoidalari asosida berilishi joriy etildi<sup>17</sup>.

Manbalarda ayollarning hadis ilmida jarh va ta'dil bo'yicha alohida ish olib borgani haqida ma'lumotlar uchramaydi. Biroq, Oisha (r.a.) bu sohadan xabardor bo'lganlari qayd etilgan. Bunga quyidagi hadis dalil sifatida keltiriladi: Abdulloh ibn Ubaydulloh ibn Abu Mulayka aytadi: "Usmon (r.a.)ning bir qizi Makkada vafot etdi. Janazasida qatnashgani bordik. Ibn Umar va Ibn Abbos (r.a.) ham kelishdi. Men ikkovlarining o'rtasida o'tirdim. Shunda Abdulloh ibn Umar (r.a.) Amr ibn Usmonga: "Yig'idan qaytarmaysanmi? Axir Rasululloh (s.a.v.): "Albatta, mayyit ahli yig'lagani uchun azoblanadi", deganlar-ku, dedi.

Shunda Ibn Abbos (r.a.) dedi: "Darhaqiqat, Umar (r.a.) bu hadisning ba'zilarini aytar edi." So'zida davom etib, u dedi: "Umar (r.a.) bilan Makkadan yo'lga chiqdik. Baydoga yetib kelganimizda qaracak, samura daraxti soyasida bir karvon turibdi. Umar: 'Borib qaraginchi, ana u karvon kimlar ekan", dedi. Borib qaragam — Suhayb ekan. Umarga aytdim. U: 'Uni

<sup>14</sup> Ahmad ibn Hanbal. Al-Ilal va ma'rifat ar-rijol. – Bayrut: al-Maktab al-islomiy, 1988. – J. 2. – B. 407–408.

<sup>15</sup> Ifaf Abdulg'afur Hamid. Juhud al-marro fi nashr al-hadis va ulumih // Majalla jomea Ummul-Quro li ulum ash-shari'a va-l-lug'at al-arabiyya va adabiha, 2007. – J. 19. – B. 255.

<sup>16</sup> Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., Alimova M. Hadisshunoslik. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 219.

<sup>17</sup> O'sha manba. – B. 220.

mening oldimga chaqir', dedi. Suhaybning yoniga borib: 'Yur, mo'minlar amirining huzuriga bor', dedim. Keyinroq, Umar (r.a.) jarohatlanganda, Suhayb yig'lab kirib keldi va: "Oh, birodarim-a! Oh, do'stim-a!" — dedi. Shunda Umar (r.a.): "Ey Suhayb! Menga yig'layapsanmi?! Axir Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: "Darhaqiqat, mayyit o'z ahli yig'lagani sabab azoblanadi', deganlar-ku", dedi.

Ibn Abbos (r.a.) deydi: "Umar (r.a.) vafot etganidan so'ng bu voqeani Oisha (r.a.)ga aytdim. Shunda u dedi: "Alloh Umarni rahmat qilsin. Allohga qasamki, Rasululloh (s.a.v.): "Alloh mo'minni uning ahli yig'lagani uchun azoblaydi", deb aytmaganlar. Balki Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: "Albatta, Alloh kofirning ahli yig'lagani sabab, uning azobini ziyoda qiladi." Sizga Qur'on kifoya: "Hech bir yukli jon boshqasining yukini ko'tarmaydi", – deb aytganlar." Shunda Ibn Abbos (r.a.) aytdi: "Kuldurgan ham, yig'latgan ham Allohning O'zi.

Ibn Abu Mulayka dedi: "Allohga qasamki, Ibn Umar (r.a.) bu gapga biror narsa demadi<sup>18</sup>."

Ta'dil bo'yicha ayollardan Ummu Umar Saqafiyning gapi misol sifatida keltiriladi. Tarixchi va muhaddis Xatib Bag'dodiy Ahmad ibn Hanbalga boruvchi sanad bilan aytadi: Ummu Umar binti Hison ibn Zayd dedi: "Otam rostgo'y kishilardan." (Bu so'z "o'ta rostgo'y, yomonligi yo'q" degan ma'noda bo'lib, zabt jihati tilga olinmagan, ammo adolatli bo'lgan roviy uchun ishlatiladi. Masalan: "Falonchi o'ta rostgo'y", "Falonchida yomonlik yo'q" kabi.) Ummu Umar tarixda ilm talab qilgan mashhur ayollardan biri bo'lib, majhula (noma'lum) darajadagi roviy bo'lmagan. Ilm aholidan bo'lgani uchun bilgan narsasini aytgan.

Ta'dil bo'yicha ayollardan Ummu Umar Saqafiyning gapi misol sifatida keltiriladi. Tarixchi va muhaddis Xatib Bag'dodiy Ahmad ibn Hanbalga boradigan sanad bilan aytadi: Ummu Umar binti Hison ibn Zayd aytadi: "Otam rostgo'y kishilardan." ("o'ta rostgo'y, yomonligi yo'q"). Ummu Umar tarixda ilm talab qiluvchilar qatorida mashhur bo'lgan va majhula (noma'lum) darajadagi roviy emas edi. U ilm aholidan bo'lgani uchun bilgan narsasini ochiq aytgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jarh va ta'dil ilmi hadis ilmlari orasida alohida o'ringa ega. Ayollar ham bu borada oz bo'lsa-da, o'z faoliyatlarini olib borganlar. Ayollarning hadis ilmining turli sohalarida o'z o'rinlariga ega bo'lishlari, ilmiy salohiyat nuqtai nazaridan ba'zi hadis ilmi bilan shug'ullanuvchilardan ustun ekanliklarini ko'rsatadi. Asosan ta'dil nuqtai nazaridan ayollarga berilgan maqomlar, ayollar rivoyatlarining hayotga tatbiq etilishida ham muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uvatov U. Ikki buyuk donishmand. – T.: Sharq, 2005. – B. 6.
2. Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., Alimova M. Hadisshunoslik. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 78–81.
3. Muratov D. Hadisshunoslik atama va iboralari (qisqacha izohli lug'at). – T.: Fan, 2009. – B. 21.
4. Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., Alimova M. Hadisshunoslik. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 78–81.
5. Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. O'zbekcha tarjima va izohlar bilan. 1151-raqamli hadis.
6. Muratov D. Hadisshunoslik: o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Toshkent islom universiteti, 2015. – B. 298.

<sup>18</sup> Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. – T.: Hilol-nashr, 2013. – J. 2. – B. 254.

7. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // Tarjima va tafsir muallifi: shayx Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti, 2012. – B. 422.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol-nashr, 2014. – J. 25. – B. 8.
9. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. – T.: Hilol-nashr, 2013. – J. 2. – B. 254.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol-nashr, 2014. – J. 16. – B. 5.

